

GENERAL JO'RABEKNING JADIDCHILK HARAKATLARIDAGI ISHTIROKI

*Parmonov Sharofiddin Shavkatovich, g ChDPU "Tarix" kafedrasi
o'qituvchisi*

PARTICIPATION OF GENERAL JURABEK IN JADIDIST MOVEMENTS

*Parmonov Sharofiddin Shavkatovich, Teacher of the Department
of History, ChDPU*

УЧАСТИЕ ГЕНЕРАЛА ДЖУРАБЕКА В ДЖАДИДСКИХ ДВИЖЕНИЯХ

**Пармонов Шарофиддин Шавкатович, преподаватель
кафедры "История" ЧДПУ**

Annotatsiya: Ushbu maqolada general-mayor Jo'rabek Qalandar qori o'g'lining XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonda bo'lgan ma'rifatchilik jarayonlarida va jadidchilik harakatlardagi ishtiroki, Turkistonga tashrif buyurgan ma'rifatparvarlar bilan uchrashuvlari tafsilotlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Turkiston, Buxoro amirligi, Shahrisabz bekligi, Kitob bekligi, Sirdaryo viloyati, Toshkent, Qorasuv, SAGU (O'zMU), "Tarjimon" gazetasi, Sven Gedin, Lev Tolstoy, Furqat Zokirjon Xolmuhammad o'g'li, Fansurullohbek, kenagasar.

Abstract: This article covers the details of the participation of the son of Major General Zhurabek Qalandar qori in the Enlightenment processes and jadidist movements in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, his meetings with the enlighteners who visited Turkestan.

Keywords: Central Asia, Turkestan, emirate of Bukhara, shahrisabz station, Book station, Syrdarya region Tashkent, Karasuv, SAGU (Uzmu), "translator" newspaper, Sven Gedin, Lev Tolstoy, Furqat Zakirjon Kholmuhammad son, Fansurullohbek, kenagas.

Аннотация: В этой статье освещаются подробности участия генерал-майора Джурабека Каландара кары оглы в просветительских процессах и джадидистских движениях в Туркестане в конце XIX-начале XX века, встречи с просветителями, посетившими Туркестан.

Ключевые слова: Центральная Азия, Туркестан, Бухарский эмирят, Шахрисабзское бекство, Китабское бекство, Сырдарьинская область, Ташкент, Карасув, САГУ (Узбекистан), газета "Переводчик", Свен Гедин, Лев Толстой, Фуркат Закиржон Холмухаммед оглы, Фансуруллахбек, кенагас.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat mahalliy aholining vatanparvar, ma'rifatparvar ziyyolilari va ulamolarini tashvishga solmasdan, o'ylantirmasdan qolmadi. Ular o'lkadagi voqelikni, uni keltirib chiqargan sabablarni tahlil qilib, ahvol shu tarzda davom etishi mumkin emasligini tushunib yetdilar. Natijada Turkiston hayotidagi inqiroz, chor Rossiyaning Turkistonda o'rnatgan mustamlakachilik tuzumi, sotqin mahalliy

amaldorlar, umuman, mavjud ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzumga qarshi mazmun-mohiyatiga ko'ra uch yo'nalishdagi harakatlar yuzaga keldi. Ulardan birinchisi – o'z asarlari orqali real voqelikni, jamiyatning kamchiliklarini ochib berib, kishilarni taraqqiyotga xizmat qilishga chaqirgan shoir va yozuvchilar ijodi bo'lsa, ikkinchisi – mahalliy aholini taraqqiyotga erishish g'oyasi asosida birlashtirishga harakat qilgan jadidlar harakati va uchinchisi – mavjud tuzumni inqilobiyoq yo'l bilan o'zgartirishni, ya'ni hokimiyatni qurol kuchi bilan



[https://orcid.org/0009-0009-
2602-1030](https://orcid.org/0009-0009-2602-1030)
e-mail:
Parmonovsharofiddin96@mail.com

qo‘lga olishni maqsad qilib olgan sotsial-demokratlar va boshqa rus tilli kishilar tashkilotlarining harakatidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Ushbu mavzuni o‘rganishda bir qator maxsus manbalar mavjud bo‘lib, ushbu manbalar orasida Sven Gedin o‘ziningg “Osiyo yuragi” asarida Jo‘rabek Qalandar qori o‘gli haqida juda samimiy fikrlar bildiradi. Yana bir manba Yujen Skaylerning Turkiston asarida ham General Jo‘rabekning hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar berilgan. Sh.Yusupov, Ismoil Gaspirali, V.V.Bartold, Sh.Umarov, Norqobil Jalil va Ro‘zimboy Hasan kabi olimlarning asarlarida va O‘zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi I fondi materiallarida yuqorida ta’kidlangan masalaning u yoki bu jihatlariga e’tibor bergen holda o‘z asarlarida tegishli masala mohiyatini yoritib bergenlar.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS) Jo‘rabek Qalandar qori o‘gli ham ikkinchi yo‘nalishning qizg‘in tarafdori edi. Uning Turkiston hayotidagi inqirozdan chiqish uchun o‘scha davrda qo‘lidan kelgan barcha tadbirlarni amalga oshirishga kirishadi. Shu davrda Turkistonga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar va olimlarning barchasi bilan suhbatlar qiladi, o‘z uyiga taklif qilib ular bilan qizg‘in bahs va munozaralarga kirishadi. Masalan, Turkistonga 1893-yilda kelgan shved sayyohi Sven Gedin bilan uchrashgani haqida Sven Gedin o‘zining “Osiyo yuragi” asarida Jo‘rabek Qalandar qori o‘gli haqida quyidagicha yozadi. Sven Gedin Jo‘rabek Qalandar qori o‘glining dunyoqarashi kengligi, yurti tarixidan boxabarligi uni maftun qilib qo‘yadi. Sven Gedin Qorasuvdagagi Jo‘rabekning uyida bir necha marta mehmon bo‘ladi, u yerdagi boy kutubxonadagi kitoblar bilan tanishadi, ayrim asarlar noyobligi, hali ularni uchratmagani uchun kerakli sahifalaridan ko‘chirmalar oladi. Arabiy, forsiy yoki turkiy tildagi bu kitoblardagi mehmonni qiziqtirgan o‘rinnlarni mezbon tarjima qilib beradi. “Jo‘rabekning hayoti, tarjimai holi misoli Sharq ertaklari qahramonlari hayotiga o‘xshab ketadi”, deya ta’sirlangan sayyoh “Osiyo yuragi” nomli asarining bir necha sahifasini Jo‘rabekka bag‘ishlab, o‘zini hayratga solgan qahramonning tarjimai holi va boshqa voqealarni keltiradi. Sven Gedin Jo‘rabekka shunday baho

beradi: “Markaziy Osiyo tarixida katta rol o‘ynagan siymo!”[1]

Jadidlar otasi Ismoilbek Gaspirali Toshkentga kelganida Jo‘rabek dodxoh bilan maxsus uchrashib, uning “Tarjimon” gazetasi fidoyilaridan biriga aylanishida, o‘lkadagi yangi usul maktablari faoliyatida qizg‘in qatnashuvida jiddiy rol o‘ynagan. Bu haqda Ismoil Gaspirali, Bartold quyidagilarni yozib qoldirgan: Toshkentda anchagina katta musulmon ziyorilar jamiyatini ko‘rib, benihoya xursand bo‘ldim. Osiyo o‘rtasida, bu chet va uzoq o‘lkada bunchalar o‘qigan va ma’lumotli musulmonlarni uchratish kimning xayoliga kelbdi dersiz! Bularning ko‘pchiligi davlat xizmatidagi harbiy va mulkiy ma’mur-u mansabdorlar bo‘lib, bir nechasi shu yerlik edi va bir ko‘pi Vo‘lga va O‘rol taraflaridan kelgan va bir-ikkisi qirg‘iz zodagonlari o‘laroq Toshkentda alohida bir jamiyat ekan. Ikki tabib, bir necha subay-ofitser yigitlar, bir necha davlat amaldorlari to‘planishdi; Turkiston ahlidan Bobobek, ota-o‘g‘il Jo‘rabeklar va Mirhaydar Mirbadalov janoblari bu ziyoli guruhni tashkil etadirlar. Toshkentda bu kabi ziyorilar, zodagonlar, muslima xotinlar fikr-u qarashlarini o‘rganib, ongimda ularning turmushiga oid anchagina yaxshi tushunchalar, ko‘nglimda ezgu hissu tuyg‘ular paydo bo‘ldi[2].

Turkiston general-gubernatori tuzog‘iga xiyonat yo‘li bilan tushirilgan Jo‘rabek 1870-yildan to umrining oxirigacha (1906-yil) Toshkentda va Toshkent yaqinidan o‘zi sotib olgan Qorasuvda umr o‘tkazdi. Butun shu davr ichida Jo‘rabek o‘lka ijtimoiy-madaniy hayotida faol qatnashdi. Jo‘rabek avvalo o‘z xalqining o‘tmishdagi boy madaniy merosiga zo‘r ixlos bilan qarar, mullo bobolarimiz qoldirgan noyob xazinalarni topish, jamlash va kelgusi avlodlarga qoldirishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadlaridan deb bilar edi. Jo‘rabekning shaxsiy kutubxonasidagi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan nodir qo‘lyozmalar bilan maxsus tanishish uchun mashhur rus sharqshunosi akademik V.V.Bartold 1902-yilda bir muncha muddat uning Qorasuvdagagi uyida qolib ketgan edi. Toshkentda uy qamog‘ida saqlangan katta iqtidor Jo‘rabek tez orada rus tilini o‘rganib oladi, zotan busiz polkovnik sifatida rus qo‘shinlariga qo‘mondorlik qilishning umuman iloji yo‘q edi. Keyinchalik Jo‘rabekni ta’riflab, N.P.Ostromov o‘z kundaliklarida bunday yozgan edi: “Jo‘rabek donishmand va kishilarni

tushunadigan odam. U rus tilida qanoatlanarli gapiradi”[3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jo‘rabek bora-bora rus klassik adabiyotining eng mashhur namoyandalari, jumladan, Lev Tolstoy ijodiga mustaqil baho bera oladigan darajaga erishadi. O‘sha davrning yirik rus ziyolilaridan biri shu munosabat bilan yozib qoldirgan fikrlar ayniqsa qimmatlidir. “Graf L.Tolstoy haqida Jo‘rabek ehtirom bilan gapirdi: “U donishmand adib va nimaiki yozsa, o‘zi his qilib yozadi. Bunaqasi sizlarning ham, bizlarning ham yozuvchilarimiz orasida kam topiladi”[4].

Chorizmning Turkistonda yurgizgan siyosatiga Jo‘rabekning munosabati haqida uning zamondoshlari qiziqarli fikrlar bayon etganlar. “Salmoqli kutubxona sohibi bo‘lgan va ko‘plab tarix kitobini o‘qigan Jo‘rabek, - deb yozgan edi. V.V.Bartold, men bilan suhbat chog‘ida ruscha idora usulini mo‘g‘ulcha idora usuli bilan asosli ravishda teng qo‘ydi”[5]. N.Ostromov 1903-yil 1-fevral kuni Jo‘rabek bilan navbatdagi uchrashuv taassurotlarini o‘z kundaligida, jumladan quyidagicha qayd etgan edi: “U rus boshliqlar xususidagi o‘z fikrmulohazalarini to‘ppa-to‘gri, hatto keskin qilib aytadi. Biroq shaxsiy hayotiga oid tafsilotlarni aytishdan hamisha o‘zini tiyadi. Ishonchim komilki, u qiziqarli va o‘z obro‘-e’tibori uchun hafli deb hisoblagan narsalarning hammasini yon daftariga qayd qilib boradi. Umuman Jo‘rabek o‘tkir shaxs va uning yon daftaridagi qaydlari Turkistonning kelgusidagi tarixchisi uchun ahamiyat kasb etajak”[6].

Furqat Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li 1889-yilning iyunida Toshkentga keladi. Toshkentdagagi Ko‘kaldosh madrasasi hujralaridan birida yashaydi. Ko‘zga ko‘ringan olim, fozillar bilan tanishadi[7]. Shular qatorida Furqat Jo‘rabek dodxoh bilan tanishgan, ular orasida mustahkam do‘stlik rishtalari paydo bo‘lgan. Jo‘rabekning chorizm Turkistonda yurgizgan nomatlub siyosati haqidagi hamisha oshkora aytildigan fikrlari ham Furqat asarlarida bu siyosatni zimdan, pardali tanqid qilinishida muayyan ahamiyat kasb etgan, degan fikr g‘olib keladi. Furqatni Jo‘rabek bilan bog‘lab turuvchi rishtalar ko‘p bo‘lgan[8]. Taniqli chor generali Jo‘rabekning kuyovi jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshlagach, chor Rossiyasining Turkistondagi

rahbarlari xavotirga tushadi va Fansurullobekni alohida xavfli shaxslar ro‘yxatiga kiritadi[9].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Jo‘rabekning jadidchilik harakatlaridagi ishtiroki nafaqat mahalliy aholi, balki chet ellik sayyohlar va olimlar bilan o‘zaro aloqalari orqali ham o‘z aksini topgan. Shved sayyohi Sven Gedin Jo‘rabekni o‘zining “Osiyo yuragi” asarida yuqori baholagan va uning madaniyati va dunyoqarashidan ta’sirlanganligini ta’kidlagan. Jo‘rabekning kutubxonasi ham uning ilmiy va madaniy merosga bo‘lgan chuqr e’tiborini ko‘rsatadi; u juda ko‘p qadimiy va noyob qo‘lyozmalarni jamlagan.U shuningdek, Rossiya imperiyasi siyosatiga qarshi o‘z fikrlarini ochiq bildirgan va bu uni mustamlakachilar tomonidan yaqindan kuzatilib, nazorat ostida tutishlariga sabab bo‘lgan. Jo‘rabekning rus tili va adabiyotiga bo‘lgan qiziqishi, shuningdek, Gaspirali va Furqat kabi jadid ziyolilari bilan bo‘lgan aloqalari, uning Turkistonning kelajagi uchun qanday istiqbolga ega bo‘lishi haqidagi fikrlarini o‘zgartirganini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Свен Хедин. Сердце Азии. Памир-Тибет-Восточный Туркестан. Путешествие в 1893-1897 годах. Издательство Ломоносовъ. Москва, 2010. С-32.
2. //Таржимон. 2 декабрь 1893 йил (6 жумадул соний 1311), 41-сон, 29-32 б.
3. O‘zbekiston Respublikasi MA. 1009 – jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 67 - ish, 53 – varaq.
4. O‘zbekiston Respublikasi MA. 1009 – jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 67 - ish, 58 – varaq.
5. Б. В. Бартольд. Сочинения. Том I, часть I, стр. 346.
6. O‘zbekiston Respublikasi MA. 1009 – jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 103-ish, 103 – varaq.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Furqat>
8. Ш. Юсупов. Худоёрхон ва Фурқат. -Т.: Шарқ нашиёт-матбаа концерни, 1995.- Б. 93.
9. Ш.Умаров. Худоёрхон авлодлари тарихи. – Т.: Турон замин зиё, 2014. Б. 639.